

O'zbekiston Respublikasidagi Samarqand Davlat Universiteti Tojikiston Respublikasidagi Tojikiston Milliy Universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risida

B I T I M

O'zbekitondagi Samarqand Davlat universiteti Rektori prof. R.IXalmuradov va Tojikiston Respublikasidagi Tojikiston Milliy Universiteti rektori prof Imomzoda Muhammadyusuf Saidali siymosida ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi hamkorlikka ko'maklashish maqsadida quyidagi akademik almashinuv haqidagi bitimni imzolaydilar:

1-modda.

Har ikkala oliy ta'lim muassasasi tegishli sohalarda ta'lim va ilmiy tadqiqotlar saviyasini oshirish maqsadida quyidagi sohalarda hamkorlik qilishga ahdlashadilar:

(1) Qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalari, ilmiy ma'ruzalar, simpoziumlar tashkil etish va tadqiqotchilar almashinuvini yo'lga qo'yish;
(2) Ilmiy markazlar, institutlar, laboratoriyalar bazasida qo'shma loyihalar doirasida fundamental va amaliy tadqiqlarni olib borish va rivojlantirish;
(3) Kelishilgan ustuvor yo'nalishlarda qo'shma tadqiqotlar va ishlanmalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirishni tashkil etish;
(4) Har ikkala muassasa uchun manfaatli bo'lgan sohalarda axborot va materiallar ayirboshlash;
(5) Talabalar, magistrlar va doktorantlar ayirboshlash;

2-modda.

Har ikki tashkilot o'rtasida ayirboshlash xususidagi masalalar manfaatli tomonlar o'rtasida har alohida olingan holda kelishib olingan bo'lishi lozim hamda kerak bo'lganda yozma shaklda ahdlashilishi kerak;

3-modda.

Hamkorlik faoliyati davomida tomonlar o'rtasida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday muammo kelishuv yo'li bilan hal etilishi lozim.

4-modda.

Bu bitim har ikki muassasa vakillari tomonidan imzolanganidan keyin kuchga kiradi va besh yil davomida amalda bo'ladi.

5-modda.

Ushbu bitim faqat taraflarning yozma ravishdagi roziligi bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

6-modda.

Ahdlashgan tomonlardan biri olti oy oldin hamkor tomonni yozma ravishda ogohlantirgan holda bitimni bekor qilishi mumkin. Ammo bitimning bekor qilinishi ushbu hujjat amal qilgan davrda kelishilgan tadbirlarni amalga oshirishga ta'sir o'tkazmaydi.

7-modda.

Bitimni muddatidan oldin to'xtatish hollari yuz bermaganda ushbu bitimni uzaytirish hujjat amal qilinishining tugashiga olti oy qolgunga qadar muhokama qilinishi va qaror qabul qilinishi kerak.

8-modda.

Ushbu bitim o'zbek va tojik tillarida tuzilgan, har ikkala nusxa ayni kuchga ega.

M.S. IMOMZODA

Tojikiston Milliy Universiteti Rektori

Sana_____

R.I. XALMURADOV

Samarqand Davlat Universiteti Rektori

Sana_____

09/2018